

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHARIPOV SHAXRIDDIN ZIYADULLAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA MILLIY-MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI
TARIXI (ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARI MISOLIDA
1990-2020-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich

О‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi (Zarafshon vohasi viloyatlari misolida 1990-2020-yillar) 3

Шарипов Шахриддин Зиядуллаевич

История деятельности национально-культурных центров в Узбекистане (на примере областей Зарафшанского оазиса в 1990-2020 годы) 25

Sharipov Shaxriddin Ziyadullaevich

The history of the activities of national cultural centers in Uzbekistan (on the example of the regions of the territory of the Zarafshan oasis in 1990-2020)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHARIPOV SHAXRIDDIN ZIYADULLAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA MILLIY-MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI
TARIXI (ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARI MISOLIDA
1990-2020-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Tar552 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ergashev Baxtiyar Ergashevich tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Nabiyev Farhod Hamidovich tarix fanlari doktori, professor Davlatova Saodat Tilovberdiyevna tarix fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (998366) 239-11-40, (998366) 239-18-92; faks: (998366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (998366) 239-11-40, (998366) 239-18-92; faks: (998366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Is’hoqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t. f. d., professor

O.J.Irisqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, falsafa doktori (PhD)

I.M.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t. f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida rivojlangan demokratik davlatlarda millatlararo totuvlikni ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Xalqaro integratsion jarayonlarda demografik vaziyat, polietnik holat hududlardagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlash nihoyatda muhimligini ko'rsatmoqda. Hududlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, bu borada samarali natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o'rganish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berish dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Jahonning yirik ilmiy markazlari, universitetlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar, xususan, O'zbekistonda tinchlik va barqarorlik, millatlararo va dinlararo bag'rikenglik masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda global tinchlik, millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik hamda totuvlikni mustahkamlash, tolerantlik, inson taraqqiyoti, tinchlik yo'lidagi ta'lim, dinlararo va konfessiyalararo o'zaro hurmat ustuvor masalalarga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonda tinchlik va barqarorlik, millatlararo va dinlararo bag'rikenglik borasida tizimli ishlar, erishilayotgan natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda. Ta'kidlash joizki, "dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda"¹. Shu ma'noda, O'zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, bu borada jahon tajribasini o'rganish, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sinovdan o'tgan ijobiy tendensiyalarni mamlakat hayotiga joriy etish, respublikada bu borada mavjud muammolarni aniqlash, ularning yechimiga tavsiyalar ishlab chiqish asosida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 15-noyabrdagi PF5876-son "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabrdagi 1018-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda

¹ Мирзиёев Ш. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик - халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг ҳаётбахш манбаи // Миллий тараққиёт йўлиминизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – В. 298.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda Zarafshon vohasining Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar bo‘yicha maxsus tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Biroq ushbu masalaning ayrim jihatlariga oid bir necha tadqiqot ishlari bajarilgan. Shundan kelib chiqqan holda, mavzuning o‘rganilganlik darajasini ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh fanlararo yondashuv asosida O‘zbekistonda mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlarning turli jihatlariga oid bajarilgan tadqiqotlarni qamrab oladi. Jumladan, bu borada K.Normatov, F.Is‘hoqov, R.Nurillinlar², K.Mira‘zamov³, A.Mo‘minov⁴, O.Ata-Mirzayev, V.Gentshke, R.Murtazayeva⁵, D.Bobojonova⁶, O.Musayev⁷, X.Yunusova⁸, Z.Yusupov⁹, R.Shigabdinov, R.Nazarov¹⁰, G‘.Mirzayevlar¹¹ tomonidan amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin.

² Normatov K., Isoqov F., Nurillin R. Millatlararo munosabatlar madaniyati va baynalmiinal dunёkarash. – Toshkent: Ўzbekiston. 1993. 135 b.

³ Mira‘zamov K. Milliy-madaniy manfaatlar va milliy madaniyatlarning rivojlaniishi. Falсаfa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya. – Toshkent: 1995. 143 b.

⁴ Muminov A. Millatlararo munosabatlardagi muammolarni ўrganiшning dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan. 1996. 176 b; Ўша муаллиф: Milliy siёsat va madaniy soҳadaги ўzgarishlar. – Toshkent: Akademiya. 2010. 123 b.

⁵ Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Ўzbekiston mnogonatsionalnuy: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Sharq, 1998, 159 s; Ўша муаллифлар: Mejnatsionalnaya tolerantnost v Ўzbekistane: istoriya i sovremennost. – Tashkent, 2004. 179 s; Baғrikenг Ўzbekiston diasporalari tarixi (Buxoro yhudийlari, nemis, polyak, koreys, grek, uyғur, Boltikbўyi xalqlari misolida). 2-kitob. Jamoaviy monografiya. Masъul muҳarrir. P.X. Murgazayeva. – Toshkent: Turon-Iқbol. 2019. 173 b.

⁶ Bobojonova D. Ўzbekistonda ijtimoiy-iқtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 1999. 160 b.

⁷ Musaev O. Ўzbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar (1991-1997 йиллар). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya. – Toshkent 2000. 163 b. Ўша муаллиф: Milliy siёsat va milliy-madaniy markazlar // Mустақил Ўzbekiston tarixining dastlabki saҳifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. 147-162 b. Ўша муаллиф: Ўzbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: Istiқlol нури. 2016. 323 b; Ўша муаллиф: Ўzbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy хусусияtlari. Falсаfa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2017. 258 b.

⁸ Yunusova X. Ўzbekistonda совет davlatining milliy siёsati va uning oқibatlari. – Toshkent: Zarqalam, 2005. 116 b.

⁹ Yusupov Z. Ўzbekiston madaniyatida milliylik va baynalmiinallik (1970-2000 йиллар). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2011. 153 b.

¹⁰ Shigabdinov R. Bashkirskaya diaspora Ўzbekistana// VII Kongress etnografov i antropologov Rossii. – Saransk: IЭA РАН. NIIИГН, 2007 512 s; Nazarov P. Polietnicheskiy soсium Ўzbekistana (istoriko-soсiologicheskiy aspekt). Tashkent: Ijtimoiy fikr, 2013. – 144 s; Ўша муаллиф: Etnopoliticheskie protsessy i mejetnicheskie otnosheniya v Respublike Ўzbekistan (konets XX – nachalo XXI vv.). Tashkent: Adabiёт учкунlari, 2015. – 244 s.

¹¹ Mirzayev F. Ўzbekiston Respublikasi va Turkmaniston хамкорlik aloқalarining shakllaniishi va rivojlaniш tarixi. Tarix fanlari bўyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya avtorеferati Toshkent-2018 й. 50-b.

Ularning tadqiqotlarida O‘zbekistonda baynalminal dunyoqarash, millatlararo munosabatlar muammolari kabi ayrim masalalarga oid ma’lumotlar mavjud. R.Murtazayevaning tadqiqotlarida O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlari, O‘zbekiston hududidagi turli diasporalar etnogenezi, mustaqillik yillarida millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik masalalari tahlil etilganini ta’kidlash zarur.

D.Bobojonovaning tadqiqotlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kontekstida millatlararo munosabatlar muammolarining mavjudligi, shuningdek, millatlararo munosabatlarning iqtisodiy asoslari yoritib berilgan.

O.Musayevning tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, R.Nazarovning tadqiqotlarida O‘zbekistondagi polietnik sotsium tarixiy-sotsiologik aspektlarda tadqiq etiladi, shuningdek, etnosiyosiy jarayonlar va millatlararo munosabatlar tarixiy tahlil etilgan.

Shuningdek, I.Saidov, Sh.Hayitov¹², Sh.Hayitov, K.Rahmonov, O.Ahmadovlar¹³ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda xorijiy davlatlardagi o‘zbeklar faoliyati o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlar xorijdagi o‘zbeklar va O‘zbekistondagi boshqa millat vakillarining turmush tarzini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Zarafshon vohasining Samarqand¹⁴, Navoiy¹⁵ va Buxoro¹⁶ viloyatlari mustaqillik yillari tarixiga oid tadqiqotlarda millatlararo munosabatlar hamda

¹² Саидов И.М., Хайитов Ш.А. Хориждаги ўзбеклар тарихи ва этнографияси. Самарқанд. 2015.-160 б.

¹³ Хайитов Ш, Раҳмонов Қ, Аҳмадов О. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. Монография Т. “Наврўз” 2020. 200 б.

¹⁴ Самиев Х. Самарқанд маҳаллари тарихи. – Самарқанд. 2007. 113 б; Хушбақов П. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: 2007. 32 б; Алимова Д., Буяков Ф., Раҳматуллаев Ш. Самарқанд тарихи (қадимги даврлардан бугунги кунгача). – Тошкент: 2009. 146 б; Сидикова М. Самарқандда замонавий шаҳар маданиятининг ривожланиш хусусиятлари (1991-2017 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2019. 152 б; Даминов Н. Мустақиллик йилларида Самарқанд вилоятида ижтимоий-иқтисодий, маданий алоқаларнинг ривожланиш тарихи ва истиқболлари (1991-2016 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Бухоро. 2021. 54 б.

¹⁵ Аминова А. Исторический анализ экономических преобразований в Навоийской области (1991 - 2007 гг.): Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 2012. 29 с; Нарзуллаев У. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари: Тарих фан. бўйича фал. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2019. 54 б; Холиқулова Ш. Қуйи Зарафшон воҳаси саноат ишлаб чиқаришининг ривожланиши жараёнлари (1991–2016 йй.): Тарих фан. бўйича фал. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 53 б; Мустафоев Ж., Нарзуллаев У., Сафаров З. Конимех тумани: кеча ва бугун. – Тошкент, Sahnof, 2020. – 360 б; Навоий ўтмиши қадим, келажаги нурли диёр /тузувчи-муаллифлар: Сулаймонов Р., Турдимов Э., Турсунов Қ., Иноятов С. ва бошқ.–Тошкент, Маънавият, 2021.– 320 б; Раҳмонов Х. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий институтлар фаолияти тарихи (Навоий вилояти мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Бухоро. 2022. 54 б.

¹⁶ Курбонова М. Б. Бухоро воҳаси миллатлараро бағрикенглик ўлкаси // Модернизация, инновацион тараккиёт ва толерантлик ривожини истиқболлари. Республика илмий конференция материаллари тўплами. 3-китоб. Тошкент: 2010, 249 б; Базарова М., Абдуллоева Г., Кузиев Н. Бухоро вилоятида фаолият олиб бораётган миллий- маданий марказлар. – Тошкент: 2022, 207 б; Сафаров И. Миллий-маданий марказлар фаолиятдан. “Видергебург” ҳамкорликка чорлайди / Бухоронома. 2001 йил, 11 апрел; Қудратов А. Тожик маданият маркази ташкил этилди. Бухоро ҳақиқати. 1990 йил, 6 январ; Раҳматова С. Яхудий маданий маркази тузилди / Бухоро ҳақиқати. 1990 йил, 14 апрел; Аҳмедова С. “Сабантўй – 2002” қувончлари /

ushbu viloyatlardagi milliy-madaniy markazlar haqida ayrim fikrlar juda qisqa tarzda bayon etilgan.

Xususan, P.Xushboqov, N.Daminovlarning tadqiqotlarida Samarqand viloyatidagi madaniy jarayonlar, madaniyat sohasidagi tashkilotlar faoliyati, ularning viloyat ijtimoiy iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini tahlil qilingan. Biroq viloyatning milliy-madaniy markazlari faoliyatiga batafsil to'xtalib o'tilmagan.

U.Narzullayevning tadqiqotida Navoiy viloyatining mustaqillik yillaridagi xalqaro madaniy aloqalari yoritilgan. Viloyatdagi turli davlat va jamoat tashkilotlarining Respublika xalqaro aloqalaridagi ishtiroki tarixi tahlil qilingan. Biroq Navoiy viloyatidagi milliy-madaniy markazlarning faoliyati va xalqaro aloqalari tadqiqotning vazifalariga kiritilmagan.

M.Qurbonova tomonidan Buxoro viloyatidagi bir qancha milliy-madaniy markazlarning faoliyati etnografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. "Buxoro viloyatida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar" nomli atlas-kitobda ular haqida umumiy va foto ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi guruhni O'zbekistondagi millatlararo munosabatlar, diniy bag'rikenglik masalalari tadqiq qilingan xorijiy adabiyotlar tashkil etadi. Xorijiy tadqiqotlarning keltirilishi taqqoslash va qiyoslash metodlari asosida mavzu yuzasidan aniq asoslangan ilmiy xulosalar olish imkonini beradi. Xususan, N.K. Radina tadqiqotlarida mavjud milliy madaniyatlar va ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilingan. Bu jarayon ko'p millatli mamlakatlarda millatlararo munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi¹⁷. Shuningdek, ko'p millatli jamiyatda vaziyatni barqarorligida tolerantlik muhim ahamiyat kasb etadi. Dinlararo erkinlik, turli din vakillarining yonma-yon va tinch-totuv yashashi aynan diniy jihatlariga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Ye.I.Kasyanova tadqiqotlarida millatlararo munosabatlardagi tolerantlik asosiy o'rinni egallagan¹⁸. T.P.Vanchenko, L.A.Gorodeskaya tadqiqotlarida kam sonli xalqlar milliy bayramlari va ularning madaniy kompetensiyalari asosiy ob'ekt sifatida talqin etilgan¹⁹. Mazkur tadqiqotlar natijasida kelib chiqqan ilmiy xulosalar millatlararo munosabatda o'ziga xos nazariy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, A.I.Gizinburg, Q.I.Qoblandin, G.M.Mendikulova, Frederick Starr, Svante E.Cornell, Jacob Zenn, Richard Veitzlarning²⁰ tadqiqotlarida O'zbekiston

Бухоронома. 2002 йил, 6 июль; Мирзакулов Б. Миллатлараро тотувлик – жамият тараққиётининг асосий шартидир // Бухоронома. 2010 йил, 27 октябрь.

¹⁷ Радина Н.К. Технологии межкультурного взаимодействия в российском гражданском обществе. Автореф. дисс. д.полит.н. Н. Новгород: НГУ, 2007. С. 25.

¹⁸ Касьянова Е.И. Нравственные основы толерантности в современной социокультурной ситуации. Автореф. дисс. д. философ. н. СПб: СПбГУ, 2009. С. 41.

¹⁹ Ванченко Т.П. Культуролого-антропологические основания праздника: семантико-семиотические аспекты. Автореф. дисс. д. философ. н. Тамбов: ТГУ, 2008. С.24, Городецкая Л.А. Лингвокультурная компетенция личности как культурологическая проблема. Автореф. дисс. д-ра культурологии. М.: МГУ, 2007. С. 48.

²⁰ Гинзбург А.И. Узбекистан. Этнополитическая панорама: Очерки. Документы. Материалы. М.: ИЭА РАН, 1995. Қобландин Қ. И., Мендикулова Г. М. Ўзбекистандағы қазақтардың тарихы және бүгінгі дамуы. – Алматы : Дүниежүзі қазақтарының қауымдастығы, 2009. – 296 б., Frederick Starr, Svante Cornell. Uzbekistan's New Face. USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 248 p., Svante E. Cornell and Jacob Zenn. Religion and the Secular State in Uzbekistan. USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 45 p., Richard Weitz. Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership // USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 55 p.

Respublikasida millatlararo munosabatlar, ularning huquqiy asoslari, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli etnoslar va xalqlarning turmush-tarzi, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning madaniy aloqlari tarixi ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda PZ-20170928749 – “O‘zbekiston mustaqillikka erishishining tarixiy shart-sharoitlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekistonda 1990-2020-yillarda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini Zarafshon vohasi viloyatlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlarini yoritib berish;

Milliy-madaniy markazlarning “xalq diplomatiyasi”ni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish;

Zarafshon vohasi viloyatlarida milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini yoritib berish;

Zarafshon vohasi viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlarning kadrlar tarkibini tahlil qilish;

Viloyatlarda milliy-madaniy markazlar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy madaniy tadbirlarni tahlil qilish;

Millatlararo totuvlikni ta‘minlashda milliy-madaniy markazlar faoliyati tajriba va muammolarini yoritib berish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Zarafshon vohasidagi milliy-madaniy markazlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini Zarafshon vohasining Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada fanlararo yondashuv, muammoviy-xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatidagi Ozarbayjon, tojik va tojikzabon, rus, “Wiedergeburt” nemis, “Polonez” polyak, “Umirzaya” tatar va boshqirdlar hamda boshqa milliy-madaniy markazlarning hudud madaniy hayotida faol ishtirok etganligi, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, viloyatda turizm va investitsiya salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan;

Navoiy viloyatidagi yahudiylar, qozoq, qoraqalpoqlar, “Nur” tatar-boshqird, “Choson” koreys va boshqa milliy-madaniy markazlarning ko‘p millatli hududda millatlararo totuvlikni ta‘minlashda muhim o‘ringa egaligi hamda “xalq diplomatiyasi”ni rivojlantirishga katta hissa qo‘shganligi asoslab berilgan;

Buxoro viloyatida “Oftobi So‘g‘diyon” tojik-fors, “Soglasie i miloserdie” rus, “Shalom” yahudiy, “Svetlitsa Polska” polyak, turkman milliy-madaniy markazlarining “Mustaqillik bayrami”, “Navro‘z”, “Konstitutsiya kuni” va “Yangi yil” kabi umumxalq bayramlaridagi faol ishtiroki asosida viloyatda tolerantlik va

bag'rikenglikni mustahkamlashga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga hissa qo'shganligi, ularning faoliyati orqali viloyatda ziyorat va biznes turizmini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Zarafshon vohasi viloyatlari (Samarqand, Navoiy, Buxoro) milliy-madaniy markazlarining ish yuritish hujjatlar asosida tashkiliy jihatdan mustahkamlanganligi, moddiy-texnik bazasining boyitilganligi orqali faoliyat samaradorligi oshganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda milliy-madaniy markazlarni faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan.

Milliy-madaniy markazlarning "xalq diplomatiyasi"ni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Zarafshon vohasi viloyatlarida milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi yoritib berilgan.

Zarafshon vohasi viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlarning kadrlar tarkibi tahlil qilingan.

Viloyatlarda milliy-madaniy markazlar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy madaniy tadbirlar tahlil qilingan.

Millatlararo totuvlikni ta'minlashda milliy-madaniy markazlar faoliyati tajriba va muammolari yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini tadqiq etish arxiv manbalariga asoslangan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining mantiqiy asoslanishi masalasi muammoni yoritishda qo'llanilgan O'zMA, Samarqand viloyati arxivi, Navoiy va Buxoro viloyati arxivlari materiallarining ilmiy talqini asosida baholangan hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini, uning Zarafshon vohasi viloyatlaridagi holatini tadqiq qilish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini olib boruvchi davlat muassasalari O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga oid dasturlarni ishlab chiqishda hamda mazkur muammoga oid ilmiy yondashuvlar va nazariy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini, tarixiy bilimlarni rivojlantirishda, milliy munosabatlar tarixiga oid ma'lumotlar tayyorlashda, shuningdek oliy ta'lim tizimida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar yaratish borasida davlat dasturlarini bajarishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda 1990-2020 yillarda Zarafshon vohasi viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Samarqand viloyatidagi Ozarbayjon, tojik va tojikzabon, rus, "Wiedergeburt" nemis, "Polonez" polyak, "Umirzaya" tatar va boshqirdlar hamda boshqa milliy-madaniy markazlarning hudud madaniy hayotida faol ishtirok etganligi, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi, viloyatda turizm va

investitsiya salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilganligi, Navoiy viloyatidagi yahudiylar, qozoq, qoraqalpoqlar, “Nur” tatar-boshqird, “Choson” koreys va boshqa milliy-madaniy markazlarning ko‘p millatli hududda millatlararo totuvlikni ta‘minlashda muhim o‘ringa egaligi hamda “xalq diplomatiyasi”ni rivojlantirishga katta hissa qo‘shganligi asoslab berilgan xulosalar O‘zR FA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda bajarilgan OT-A1-31 “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov zamondoshlari xotirasida” nomli amaliy loyihasining O‘zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021-yil 16-noyabrdagi 3/1255-3181-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqotning ilmiy xulosalari O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik masalalari, bu borada respublikada olib borilgan islohotlar va ularning ijobiy samarasiga olib keladigan ilmiy yondashuvning takomillashishiga xizmat qilgan;

Buxoro viloyatida “Oftobi So‘g‘diyoni” tojik-fors, “Soglasie i miloserdie” rus, “Shalom” yahudiy, “Svetlitsa Polska” polyak, turkman milliy-madaniy markazlarining “Mustaqillik bayrami”, “Navro‘z”, “Konstitutsiya kuni” va “Yangi yil” kabi umumxalq bayramlaridagi faol ishtiroki asosida viloyatda tolerantlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga hissa qo‘shganligi, ularning faoliyati orqali viloyatda ziyorat va biznes turizmini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilganligi yuzasidan xulosalar O‘zR FA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda bajarilgan PZ-20170928749 O‘zbekiston mustaqillikka erishishining tarixiy shart-sharoitlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar” nomli amaliy loyihasining O‘zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021-yil 16-noyabrdagi 3/1255-3182-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va milliy-madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasidagi islohotlar mazmunini ochib berishga xizmat qilgan;

Zarafshon vohasi viloyatlari (Samarqand, Navoiy, Buxoro) milliy-madaniy markazlarining ish yuritish hujjatlar asosida tashkiliy jihatdan mustahkamlanganligi, moddiy-texnik bazasining boyitilganligi orqali faoliyat samaradorligi oshganligi isbotlanganligiga oid ilmiy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2023-yil 27-yanvardagi 14-07-74-son ma‘lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallarning loyihaga joriy etilishi Zarafshon vohasining Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari milliy-madaniy markazlari faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek, Qo‘mita hamkorligida turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni samarali tashkil etilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflar 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 4 ta xalqaro va 7 ta respublika konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**" deb nomlanib, ushbu bobda milliy-madaniy markazlarning tashkiliy-huquqiy asoslari rivojlanish bosqichlari hamda "xalq diplomatiyasi"ni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. "**O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari**" deb nomlangan birinchi paragrafda mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, Respublika baynalminal markazining tashkil etilishi, va ularning huquqiy asoslarining yaratilishi manbalar asosida yoritilgan. Milliy-madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasining 1991-yildagi "O'zbekiston Respublikasida "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi hamda 1999-yildagi "Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlariga asosan faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasida amaldagi huquqiy normalarga asosan milliy-madaniy markazlar Nizomi tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro'yxatga olinadi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar hamda milliy-madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish, ularni ijtimoiy-siyosiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, 2016-yildan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida ustuvor vazifa etib belgilandi.

Shunga asosan, bir qator yangi huquqiy mexanizmlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. 2017-yil 19-mayda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni²¹ qabul qilinib respublikada faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy marazlar faoliyatini zamonaviy asoslarda tashkil etish hamda shu asosida xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-maʼrifiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ushbu farmonga asosan Respublika baynalminal madaniyat markazi va doʻstlik jamiyatlari negizida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi tashkil etildi. Oʻzbekiston tajribasida ilk bor amaliyotga kiritilgan hamda yangi tashkil etilgan qoʻmitaning vakolatlari yanada kengaytirilib, jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bagʻrikenglikni taʼminlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, doʻstlik va koʻp millatli yagona oila tuygʻusi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy-madaniy markazlar va doʻstlik jamiyatlari bilan oʻzaro aloqasi va hamkorligini taʼminlash, mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining oʻziga xos milliy anʼanalari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga koʻmaklashish, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uygʻunlashtirishga bagʻishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda koʻmaklashish va bevosita qatnashish²² kabi vazifalar belgilab berildi.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2019-yil 15-noyabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga²³ asosan “Millatlararo munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq millatlararo munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari belgilab berildi.

Oʻzbekistonda milliy-madaniy markazlarning faoliyatini rivojlantirish borasida huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilishi natijasida milliy-madaniy markazlar soni va ularning faoliyati samaradorligi oshib bormoqda. Jumladan, 1989-yilda madaniyat vazirligi qoshida mamlakat Millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Uning tarkibiga 12 ta, jumladan, qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik madaniyat markazlari faoliyat koʻrsata

²¹Xalq soʻzi. 2017-yil 20-may.

²² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/3210345> (19.12.2019)

²³Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 16.11.2019 y., 06/19/5876/4029-son.

boshladi²⁴. O‘zbekistonda 2000-yilga kelib milliy-madaniy markazlarning soni 138 tani tashkil etdi²⁵. 2022-yil holatiga ko‘ra respublikada 152 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib borgan.

“Milliy-madaniy markazlarning “xalq diplomatiyasi”ni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi paragrafda millatlararo munosabatlar, chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirishda, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida milliy-madaniy markazlar o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiladigan turli millat va elatlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida ishtirok etishini ta’minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shuningdek, barcha millat va elatlar sa’y-harakatlarini mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g‘oyasi atrofida birlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta’minlash, millatlararo munosabatlar, chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, ularning tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, turli tillardagi ommaviy axborot vositalari rivojini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistonda yashab o‘tgan va istiqomat qilayotgan, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan atoqli namoyandalar ma’naviy-madaniy va ilmiy merosini targ‘ib qiluvchi materiallarni nashr etish, “xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan foydalanish orqali xorijiy mamlakatlarning fuqarolik jamiyatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va do‘stlikni mustahkamlash, xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar va diplomatik vakolatxonalar bilan “xalq diplomatiyasi” asosida aloqa o‘rnatish va uni izchil rivojlantirish, mamlakatda yashayotgan millatlarning tarixiy vatanlari bilan do‘stlik, hamkorlik, madaniy-ma’rifiy aloqalar o‘rnatish²⁶ milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonda bir oila bo‘lib istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari turli soha va tarmoqlarda o‘z mehnatlari bilan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqdalar. Ularning fidokorona mehnatlari davlat tomonidan munosib rag‘batlantirilib, mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoni berildi.

Mehnat faoliyati bilan birga turli hududlardagi milliy-madaniy markazlar faoliyatida faol ishtirok etayotgan boshqa millat vakillari “xalq diplomatiyasi” mexanizmi asosida tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan

²⁴ Жўраев Н. Мустақил Ўзбекистон тарихи (Миллий истиқлол даври). 3-китоб. –Тошкент: Шарқ. 2011. – В. 297.

²⁵ Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналминаллик (1970-2000 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: 2011. – В. 121.

²⁶ Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/4597662> (16.08.2021)

do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlar bilan yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritishi millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga, sohaga oid huquqiy va amaliy ishlarni takomillashtirishga asos bo'ldi. Milliy-madaniy markazlar faoliyati O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va do'stlikni mustahkamlashda asosiy vazifasini bajarib kelmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zarafshon vohasi viloyatlarida milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi”** deb nomlanib, bobda milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi, kadrlar tarkibi tadqiq qilingan. **“Voha viloyatlari milliy-madaniy markazlarining tashkil topishi tarixi”** deb nomlangan birinchi paragrafda O'zbekistonning mustaqillikka erishishi milliy-madaniy markazlarning tashkil topish jarayonini tezlashishi uchun sharoit yaratib berganligi, barcha sohalarda amalga oshirilgan islohotlar qatorida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalarida ham tizimli islohotlar amalga oshirilganligi haqida fikr yuritiladi. Respublikaning boshqa hududlari qatori Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida yashaydigan boshqa millat vakillari o'zlarining milliy-madaniy markazlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Jumladan, Samarqand viloyati hududi qadimdan turli millat vakillari tinch totuv yashab kelgan hudud sanaladi.

2015-yilning 1-noyabr kuni AQSh davlat kotibi Jon Kerri Temuriylar davlatining poytaxti bo'lgan Samarqandda bo'lib, Temuriylar davrining shon shavkati, uning turli millat va elatlarni birlashtirgan markaz bo'lganiga yana bir bor ishonch hosil qildi. Jon Kerri Ostonadagi Nazarboyev Universitetida Samarqand haqida quyidagilarni ta'kidladi: “Bu turklar, arablar, musulmonlar, yahudiylar, yunonlar, armanilar, xristianlar, katolik, va nestorianlar bilan birday munosabatda bo'lingan shahardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nyu-Yorkda 70 yil muqaddam tashkil qilingan deb hisoblaymiz. Yo'q bu Samarqandda bir necha yuz yil muqaddam sodir bo'lgan”²⁷, deb ta'kidlagan edi.

Samarqandda 2018-yilga kelib milliy-madaniy markazlar soni viloyatda o'n bittaga yetdi. Ushbu milliy-madaniyat markazlarining boshqa viloyatlar milliy-madaniy markazlari bilan hamkorlikda samarali faoliyat olib borayotganligi tadqiqotimiz davomida tahlil etildi.

Millatlararo munosabatlarni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun milliy madaniy markazlarning bir guruh vakillari davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandilar²⁸. Xususan, nemis milliy-madaniy markazi raisi Kayzer Natalya Filippovna 2017-yilda Respublika baynalminal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi²⁹.

²⁷ Remarks by John Kerry at Nazarbayev University. The United States and Central Asia: Partners for the 21st Century // <https://kz.usembassy.gov/remarks-by-john-kerry-at-nazarbayev-university/> (2.11.2018)

²⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi devonxona arxivining Samarqand viloyati bo'limi 1552-fond, 1-ro'yxat, 300 - yig'ma jild, 130-varaq.

²⁹ Xalq so'zi. 2017-yil 25-yanvar.

Navoiy viloyatida ham boshqa viloyatlar kabi milliy-madaniy markazlar mustaqillikning ilk yillarida tashkil topa boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Hudud aholisining salmog‘i kam bo‘lishiga qaramasdan, aholi milliy tarkibining xilma xilligi, ya‘ni o‘zbeklar bilan bir qatorda 90 ga yaqin millat va elat vakillari yashab kelmoqda³⁰. Dastlab viloyatdagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bir qator o‘ziga xos qiyinchilik va muammolar ham yuzaga keldi. Chunki, Navoiy viloyati mustaqillikdan so‘ng 1992-yilda qayta tashkil topgan edi. Shuning uchun ham tashkiliy asoslarda dastlab qiyinchiliklar kuzatiladi. Biroq tashkil etilgan milliy-madaniy markazlar muammolarga qaramasdan faoliyatini tugatmadi, aksincha, davom ettirishga, rivojlanishga harakat qildi. Shu bilan birga Navoiy viloyatidagi milliy-madaniy markazlar soni yildan yilga ko‘payib bordi. Viloyatda faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlarning faoliyatida bir tekis faollikni kuzatish mumkin. Ayrim boshqa viloyatlardagi milliy-madaniy markazlar faoliyatida notekis dinamikani, ya‘ni qaysi bir milliy-madaniy markaz faol, qaysi biri esa nisbatan sustligini kuzatish mumkin. Biroq, Navoiy viloyatidagi barcha milliy-madaniy markazlarning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollik, markazni yuksaltirishga intilishni kuzatish mumkin.

Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan milliy-madaniy markazlarining bir nechta faollari davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi³¹. 2016-yildan keyin O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Navoiy viloyati milliy-madaniy markazlari faoliyatida ham yangi bosqich vujudga keldi. Barcha milliy-madaniy markazlar zamonaviy talablarga javob beradigan “Do‘stlik uyi”ga joylashtirildi³². Ish samaradorligini oshirish maqsadida xodimlar shtat birliklari joriy etildi.

Buxoro viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan 12 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ta‘kidlash kerakki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq viloyat milliy-madaniy markazlari samarali faoliyat olib bormoqda. Respublika bo‘yicha faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlarning viloyatlarda o‘z bo‘limlari mavjud bo‘lib, o‘zaro hamkorlikda tadbirlar tashkil etib kelishadi.

Jumladan, hozirgi kunda O‘zbekistonda 7 ta Ozarbayjon madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda, ular Buxoro, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida joylashgan. Madaniyat markazlari faoliyatini mamlakatimizda 2003-yilda tuzilgan Ozarbayjon madaniyat markazlari uyushmasi muvofiqlashtiradi³³.

Buxoro viloyati Turk milliy-madaniy markazi 1991-yil 27-iyunda tashkil etilgan. 1992-yil 22-yanvarda Buxoro shahar Ijroiya qo‘mitasi Adliya boshqarmasi tomonidan ro‘yxatga olingan. Dastlab yangi tashkil topgan markazni Shaxriyev

³⁰ Рахмонов Х. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий институтлар фаолияти тарихи (Навоий вилояти мисолида). Тарих фан. бўйича фал. док... дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – В. 15.

³¹<https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/navoijda-zbekiston-umumij-ujimiz-festivalining-ududij-bos-ichlariga-jakun-jasaldi/?lang=oz> (14.06.2019)

³² Do‘stlik bayrog‘i. 2020 yil, 25 noyabr. №53. –В.2.

³³ Адигезалов А. Замоновий халқаро муносабатлар тизимининг шаклланишида Ўзбекистон Республикаси ва Озарбайжон Республикасининг ўзаро ҳамкорлиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент: 2021. –В. 20.

Kamal Suleymanovich boshqargan³⁴. Ushbu markaz o‘z oldiga turklarning urf-odatlarini, an‘analari, milliy qo‘shiq, raqslarini tiklashni maqsad qilib qo‘ygan³⁵, yosh avlodga milliy qo‘shiq va raqslarni o‘rgatishadi, viloyatdagi turli jamoat tashkilotlari, milliy-madaniy markazlar bilan hamkorlik qiladi.

“Zarafshon vohasi viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlarning kadrlar tarkibi” deb nomlangan ikkinchi paragrafda Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlar a‘zolari, ularning faoliyati tahlil qilingan.

Zarafshon vohasidagi milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi va faoliyati samardorligida kadrlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimizdan ma‘lum bo‘ldiki, ushbu mintaqada milliy-madaniy markazlarda faoliyat olib borayotgan kadrlar asosan shu millatga mansub aholi vakillaridan iborat bo‘lgan holda tashkil topgan. Biroq ayrim hollarda milliy-madaniy markazlardagi kadrlar tarkibida turli diaspora vakillarini ko‘rish mumkin.

Samarqand viloyati tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi faoliyatida viloyatning shahar va tumanlaridan ham faollar ishtirok etishadi. Ular orasida turli kasb egalari mavjud. Xususan, O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti M.Mavlonov, teleboshlovchi Sh.Axrorova, afg‘on jangchisi, tog‘li Ohalik qishlog‘i maktab direktori A.Hakimov, SamDU professori D.Hamroyev, viloyat “Ovozi Samarqand” gazetasi muharriri B. Rahmonov, akademik A.Isayev, shoira D.Farruzhodalar shular jumlasidandir³⁶.

Samarqand viloyati tatarlar va boshqirdlar madaniyat markazi kadrlaridan markaz raisi Subxonqulov Ahmed Makarimovich 2007-yildan buyon Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon tatarlar kongressining qurultoylari ishida, markazning yosh faollari bilan barcha tadbirlarda ishtirok etib kelmoqda. Axmed Subxonqulovga tatar xalqining tili, urf-odatlarini va an‘analarini saqlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Tatariston Respublikasi Prezidenti R.N.Minnixanov tomonidan Tashakkurnoma topshirildi, markaz faollari Valiyev Anas, Tilyavova Zakiya, Xabibulina Ilsiya, Xaliulina Taskira, Maxmudova Rita, Subxonqulov Ahmadlar Butunjahon tatarlar kongressining tashakkurnomalari bilan rag‘batlantirildi. Markaz tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan 2018-yil 7-iyul kuni Sabantuyda bir guruh faollarga Butunjahon tatarlar kongressining tashakkurnomalari topshirildi, markaz raisi Butunjahon tatarlar kongressining “Tatar xalqi oldidagi buyuk xizmatlari uchun”³⁷ medali bilan taqdirlandi.

Navoiy viloyati Konimex tumani qoraqalpoq milliy-madaniy markazi a‘zosi, «Jas tulek» ansambli badiiy rahbari Bazarbayeva Nurkul Alimbayevna viloyatdagi milliy-madaniy markazlarning faol kadrlaridan biri hisoblanadi. Nurkul Alimbayevna “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan. Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlarning faol rahbarlari sifatida rus milliy-madaniy markazi rahbari, rus tili

³⁴ Buxoro viloyat davlat arxivi. Fond-1459, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-36, 247-248-varaqlar

³⁵ Buxorodagi milliy-madaniy markazlar faoliyati// <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/715-maqola.html> (12.12.2020)

³⁶ Толерантность – это дружба // <https://sv.zarnews.uz/post/tolerantnost-eto-drujba> (17.12.2020)

³⁷ Butunjahon tatarlar kongressi rasmiy sayti: <https://tatar-congress.org/ru/blog/predsdatel-natsionalnogo-soveta-vasil-shayhraziev-vstretitsya-s-tatarami-samarkandskoy-oblasti/> (10.08.2021)

fani o'qituvchisi Yadikina Anna Vladimirovna, qozoq milliy-madaniy markazi rahbari Narinbetov Turexan Kanatovich, tatar-boshqird milliy-madaniy markazi rahbari Ablakulov Baxtiyar Adilovich va boshqalarni keltirish mumkin.

Buxoro viloyati "Soglasie i miloserdie" rus milliy-madaniy markazida bir guruh faollar shakllangan. Ularning mehnati evaziga rus tilida so'zlashuvchi diasporaning milliy-madaniy va boshqa ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga erishildi, milliy madaniyatlarning o'zaro hamkorligini va o'zaro boyishini kuchaytirishga hissa qo'shildi³⁸.

Buxoro viloyati Buxoro yahudiylari musiqa madaniyatida alohida o'rinni egallagan edi. Ular orasida hofiz va sozanda Levi Boboxonni (1873 – 1926) alohida qayd etish lozim. Nabirasi Ari Boboxonov ham maqom ustalaridan biri sifatida mashhur. Berta Davidova, Barno Is'hoqova, Shoista Mullajonova, aka-uka Gavriel va Mixoel Mulloqandovlar va Izro Malaxov Buxoro yahudiylari jamoatining "Shashmaqom" ustalari sifatida shuhrat qozongan mashhur kishilardir. 2018 - yilda o'zbek maqom san'atini rivojlantirish, xalqimizning boy madaniy merosini dunyoda targ'ib etishga qo'shgan hissasi uchun maqom ansamblining sobiq xonandasi Izro Asherovich Malaxovga "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" faxriy unvoni berildi.

Zarafshon vohasi viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlar tashkil topishida va faoliyatida turli muammolar hamda o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keldi. Xususan, ularning faoliyatlarini to'laqonli ravishda yo'lga qo'yishlari uchun moddiy bazaning yetarli emasligi, ish joyi bilan ta'minlanmaganligi, oylik maosh oladigan xodimlarning mavjud emasligi, a'zolarning asosiy qismini kekxa avlod vakillari tashkil etish kabilar shular jumlasidandir. Tadqiqot davomida 2016 - yildan keyingi yillarda boshqa sohalar qatori milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi faoliyati va kadrlar tarkibida ijobiy o'zgarishlar bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Zarafshon vohasi viloyatlari milliy-madaniy markazlari faoliyatidagi tajriba va muammolar**" deb nomlanadi. Bu bob ham ikki paragrafdan iborat. "**Viloyatlarda milliy-madaniy markazlar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy tadbirlar tahlili**" nomli birinchi paragrafida Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari milliy-madaniy markazlari tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy, siyosiy ma'naviy-madaniy tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. O'zbekistonda milliy-madaniy markazlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashda har yili an'anaviy ravishda o'tkazilib kelinadigan "O'zbekiston – umumiy uyimiz" shiori ostidagi an'anaviy do'stlik va madaniyat festivali muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublika rus madaniyat markazi Samarqand bo'limi Roszarubejsentrom, Rossotrudnichestvo kabi tashkilotlar hamda Rossiya elchixonasi bilan yaqin aloqada bo'lib, ular orqali madaniy dasturlar va uchrashuvlar tashkil etiladi.

³⁸ Базарова М., Абдуллоева Г., Кузиев Н. Бухоро вилоятида фаолият олиб бораётган миллий маданий марказлар. – Тошкент: 2022. – В. 90.

Markazning barcha tadbirlari ochiq o'tkazilib, televideniya namoyish etilib, ommaviy axborot vositalarida yoritilmoqda. Markaz faoliyati davomida 100 dan ortiq turli tadbirlar tashkil etilgan³⁹.

O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi Samarqand viloyati bo'limi qoshida folklor raqs va qo'shiq jamoalari, ona tili to'garaklari, shaxmat va sportning milliy turlari bo'yicha seksiyalar faoliyat ko'rsatadi. Oqsoqollar kengashi va diniy marosimlarni tashkil qilish bo'yicha faollar ish olib boradi.

Samarqand viloyati nemis madaniyat markazi turli ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, jumladan, madaniy-ma'rifiy dasturlar, targ'ibot-tashviqotlar, xalq bayramlarini jonlantirish kabi tadbirlar tashkil etadi. Bayramlar nafaqat etnik nemislar, balki ko'p millatli Samarqandning barcha aholisi uchun ham qiziqarli. Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari nemis xalqi madaniyati va an'alarini asrab-avaylash va rivojlantirish, nemis tilini o'rganish, viloyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishdan iborat.

2019 - yil 12 - iyun kuni Konimex tumanida bo'lib o'tgan bayram tadbirlarida bu hududda yashovchi o'zbek, qozoq, turkman, tojik millatiga mansub fuqarolar faol qatnashdi.

Festival doirasida "O'zbekiston – bag'rikeng diyor" mavzusida O'zbekistonda yashovchi turli millat va elatlarning betakror urf-odatlarini, an'analari ko'rgazmasi uyushtirilib, taniqli shaxslar va milliy-madaniy markazlar faoliyatini aks ettiruvchi foto asarlar namoyish etildi.

Festivalning Navoiy viloyati bosqichi doirasida viloyat markazidagi Yoshlar saroyida "Harakatlar strategiyasining millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlashda o'rni va ahamiyati" mavzusidagi davra suhbatlari tashkil etildi.

She'rlar tanlovi yakunida g'olib va tadbir ishtirokchilari qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tanlov O'zbekiston ommaviy axborot vositalari bilan birga Qozog'istonning Kazinform saytida ham yoritildi⁴⁰.

Buxoro viloyatida milliy-madaniy markazlar tomonidan tashkil etilgan tadbirlar hudud ijtimoiy, ma'naviy-madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega masalalardan biridir. Chunki, yuqorida qayd etilganidek, viloyat ko'p millatli hududlardan biri hisoblanadi. Demak, xalqlar va millatlar o'rtasidagi tinchlik va o'zaro hamjihatlik birlamchi masalalardan hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, viloyatda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari o'z haq-huquqlarini himoya qilishda, dini va milliy qadriyatlariga amal qilishda o'zlarini erkin his qilishadi eng asosiysi Buxoroni o'z vatani deb bilishadi. Bu esa mamlakatimizda barcha millat va elatlarga teng huquqli qarash hamda ularga yaratilgan sharoit va imkoniyatlarning samarasidir.

Buxoro viloyatidagi milliy-madaniy markazlar respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tadbirlar, xususan, "Yangi yil bayrami", "Vatan himoyachilari kuni", "Navro'z", "Mustaqillik bayrami", "Ustoz va murabbiylar kuni",

³⁹ <https://www.samcity.uz/catalog/item/russkij-kulturnyj-tsentr-samarkandskoj-oblasti> (24.12.2020).

⁴⁰ 180-летие казахского поэта-сказителя Базар жырау Ондасулы отметили в Узбекистане // https://www.inform.kz/ru/180-letie-kazahskogo-poeta-skazitelya-bazar-zhyrau-ondasuly-otmetili-v-uzbekistane_a3867761 (12.12.2021).

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni”, “Ramazon Hayiti” va “Qurbon Hayiti”⁴¹ kabilarni nishonlashda faol ishtirok etadi. Shuning bilan birga o‘z milliy tadbirlari hamda o‘zlarining tarixiy vatani hisoblangan mamlakatlarda nishonlanadigan turli marosim va bayramlarni ham viloyatda o‘z diasporalari ishtirokida keng nishonlashadi.

Bizningcha, milliy madaniy markazlar tomonidan ish reja asosida hamda qo‘shimcha ravishda tashkil etiladigan tadbirlarda viloyatlarda faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalari, siyosiy partiyalar, yoshlar, xotin-qizlar, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni faolroq yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, tashkil etiladigan tadbirlarda respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid mavzularni qamrab olish, turli diaspora vakillarida milliy-madaniy markazlar orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijobiy samaralari to‘g‘risida to‘liqroq tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Millatlararo totuvlikni ta‘minlashda milliy-madaniy markazlar faoliyati tajriba va muammolari” nomli ikkinchi paragrafida mustaqillikning ilk yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bilan bir qator muammolar tahlil etildi. Ular asosan moddiy va turli tashkiliy masalalar (muqim ish joyi – ofis, zarur ish jihozlari, oylik maosh, tadbirlarni tashkil etishdagi byurokratik to‘siqlar v.h.) Ushbu muammolar asta-sekin yechimini topa boshladi. Xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy-madaniy markazlar faoliyatida yangi bosqich yuzaga keldi. Samarqand viloyatidagi milliy-madaniy markazlar bir joyga “Do‘stlik uyi”ga⁴² zamonaviy jihozlar asosida joylashtirildi. Bu nafaqat viloyatdagi turli millat vakillari, balki, xorijiy davlatlarda ham keng e‘tirof etildi. Milliy-madaniy markazlar vakillarining ko‘pchiligi mehnatlari munosib baholanib, O‘zbekistonning turli faxriy unvonlari bilan mukofotlandi.

Viloyatda milliy-madaniy markazlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi⁴³. Samarqand viloyati hokimining 2003 - yil 15 - iyuldagi qaroriga⁴⁴ asosan milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etiladi. Ularning faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining grant mablag‘lari ajratildi. Shuningdek, viloyatda faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlarga homiylik mablag‘lari asosida zarur mablag‘ va jihozlar jalb qilindi. Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan rus, yahudiy, nemis, tojik va tojikzabon, tatar-boshqird milliy-madaniy markazlarning faolligini kuzatish mumkin. Ular tomonidan tashkil etilayotgan turli tadbirlarda nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda, turli jamoat tashkilotlari (yoshlar, xotin qizlar, siyosiy partiyalar v.h.) bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari ko‘zga tashlanadi. Bu hududda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari bilan o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

⁴¹ Buxoro viloyat davlat arxivi. Fond-1459, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-158, 168-169-varaqlar.

⁴² Samarqand shahridagi “Do‘stlik va nodavlat notijorat tashkilotlari uyi” binosi foydalanishga topshirildi// <https://zarnews.uz/post/samarqand-shahridagi-dostlik-va-nodavlat-notijorat-tashkilotlari-uyi-binosi-foydalanishga-topshirildi> (19.03.2021)

⁴³ Samarqand viloyati davlat arxivi. Fond-1552, jild-1683, 199-varaq.

⁴⁴ Samarqand viloyati davlat arxivi. Fond-1552, jild-1772, 164-171-varaqlar.

Navoiy viloyati O‘zbekistonning sanoat va industriya rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu viloyatda faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalarida turli millat va elat vakillari mehnat qiladilar. Jumladan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksionerlik jamiyatida 46 ming 600 nafardan ortiq ishchi-xodim ishlayotgan bo‘lsa, ular 40 ga yaqin turli millat va elat vakillaridir⁴⁵. Ushbu millat vakillarining ko‘pchiligi Navoiy viloyatida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlarning a‘zolari hisoblanib, tashkil etiladigan tadbirlarda faol ishtirok etadilar.

Viloyatdagi barcha milliy-madaniy markazlar Navoiy shahrining 50 yilligi tadbirlarida faol ishtirok etishdi⁴⁶. Tashkil etilayotgan tadbirlarda milliy-madaniy markazlarning o‘zaro hamkorligini kuzatish mumkin. Milliy-madaniy markazlar O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Navro‘z kabi bayramlarda faol ishtirok etishga harakat qilishmoqda⁴⁷. 2016 - yildan keyingi qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar asosida Respublika qatori Navoiy viloyatidagi milliy-madaniy markazlar ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi, faoliyatida samardorlik osha boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 13-oktabrda Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida milliy-madaniy markazlar vakillari bilan uchrashib, ular bilan muloqot qildi. “Ko‘p millatli Navoiy viloyati - xalqlar do‘stligi va o‘zaro anglashuvining yorqin ifodasi. O‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, tojik, rus, koreys va ko‘plab boshqa millat vakillari bir oila a‘zolaridek yashab, yurtimiz rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda⁴⁸ - deb ta’kidladi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev .

Buxoro viloyati hokimining 1992 - yil 28 - avgustdagi №147-sonli Qaroriga⁴⁹ asosan uzoq yillar davomidagi vijdonan mehnati, viloyat iqtisodiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayoti rivojiga qo‘shgan shaxsiy hissasi va O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi kuni bayrami munosabati bilan qrim-tatarlar milliy-madaniy markazi raisi Alieva Zodiya Yokubovna, Buxoro shahar koreyslar milliy-madaniy markazi raisining o‘rinbosari Kim Yevgeniy Chaganovich, tojik-fors “Oftobi sug‘diyoni” milliy-madaniy markazi raisining o‘rinbosari Mavlonov Rajab Xudoyorovich, Buxoro yahudiylari milliy-madaniy markazi boshqaruvi raisi Yakubov Avnun Ashurovichlar Xalq deputatlari viloyat kengashining Faxriy yorlig‘i bilan mukofotlandilar. Buxoro viloyatida milliy-madaniy markazlarning faoliyati va rivojlanishi uchun davlat va mahalliy hukumat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan.

Tadqiqotimiz davomida Zarafshon vohasi viloyatlari milliy-madaniy markazlari faoliyatida bir qator yutuqlar bilan birga ayrim muammolar ham ko‘zga tashlandi. Jumladan, viloyatlar milliy-madaniy markazlarining aksariyatida asosan keksa avlod vakillari ko‘pchilikni tashkil etib, yoshlar salmog‘i kamligi, ularning faoliyati asosan o‘z diasporalari bilan chegaralanib qolganligi, viloyatlarni

⁴⁵ Millatimiz boshqa-boshqadir, lekin shu yurt farzandimiz! // https://uza.uz/uz/posts/millatimiz-boshqa-boshqadir-lekin-shu-yurt-farzandimiz_394353 (30.07.2022)

⁴⁶ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-908, 14-19-varaqlar.

⁴⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-574, 1-1-4-varaqlar.

⁴⁸ Navoiy viloyati – yurtimiz javohiri, sanoat drayveri bo‘lib qolaveradi. Yangi O‘zbekiston. 2021 yil, 14 oktabr. № 204. (460). – B. 1.

⁴⁹ Buxoro viloyat davlat arxivi. Fond-1459, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-11, 2-6-varaqlar.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan kengroq foylanilmayotganligi kabilarni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, bizningcha, milliy-madaniy markazlar faoliyatiga yoshlarni, turli millat vakillarini ham jalb etish, milliy-madaniy markazlar vositasida viloyatda turizm, xususan, gastronomik turizm, biznes, investitsiya sohalari orqali hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shish mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonda 1990-2020-yillarda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi Zarafshon vohasi viloyatlari misolida tadqiq etildi. O‘rganilgan masalaning ilmiy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zarafshon vohasi viloyatlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy qulay makonda joylashganligi, asosiy savdo yo‘llarining bu yerdan o‘tganligi, shuningdek, madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlanganligi asosida tarixan hozirgi O‘zbekiston hududida turli millat va elat vakillari yashab istiqomat qilib kelishgan. O‘zbekistonda ko‘pmillatli xalqlarning yashab kelganligi bu hududda tolerantlik faktorining shakllanishi va rivojlanishiga, shuningdek, xalq va kishilar mentalitetida yuksak gumanizmning rivojlanishida bosh omil bo‘ldi.

2. O‘zbekiston mustaqilligi millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga, sohaga oid huquqiy va amaliy ishlarni takomillashtirishga asos bo‘ldi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida Millatlararo madaniyat markazi, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etildi. Markaz milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib bordi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatining tashkiliy, moddiy jihatlari bo‘yicha o‘ziga xos muammolar ham yuzaga keldi. Yangi O‘zbekiston sharoitida millatlararo munosabatalarni rivojlantirish, milliy-madaniy markazlar faoliyatni takomillashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi.

3. Samarqand viloyati nafaqat Markaziy Osiyo balki, jahonning qadimiy madaniyat markazlaridan biri. Bu yerda Buyuk Ipak yo‘li omili asosida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalar qadimdan rivojlanib kelgan.

Mustaqillikning ilk yillarida turli millat vakillari va diasporalarining milliy-madaniy markazlari soni ham yildan yilga oshib boraverdi. 2018-yilga kelib viloyatda ozarbayjon, tojik va tojikzabon, rus, “Wiedergeburt” nemis, “Polonez” polyak, “Umirzaya” tatar va boshqirdlar va boshqa shu kabi milliy-madaniy markazlar soni o‘n bittaga yetdi. Samarqand viloyatida ham boshqa viloyatlar qatori dastlabki yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida moddiy va turli tashkiliy masalalar muqim ish joyi – ofis, zarur ish jihozlari, oylik maosh, tadbirlarni tashkil etishdagi byurokratik to‘siqlar kabi bir qator muammolar asta-sekin yechimini topa boshladi. Yangi O‘zbekiston sharoitida viloyatdagi milliy-madaniy markazlar “Do‘stlik uyi”ga zamonaviy jihozlar asosida joylashtirildi.

4. Tarixiy manbalar hozirgi Navoiy viloyati hududida o‘zbek, tojik, arab, qozoq, qoraqalpoq, yahudiy, tatar millati vakillari istiqomat qilganligi keyinchalik

ularning safiga rus, ukrain, belarus, ozarabayjon, koreys kabi millat vakillari kelib qo‘shilganligi haqida ma’lumotlar beradi. Mustaqillikning ilk yillarida, Navoiy viloyati tashkil topishi bilan birga hududda yangi milliy-madaniy markazlar ham o‘z faoliyatini boshladi. Navoiy viloyatidagi milliy-madaniy markazlar faoliyatlarini to‘laqonli ravishda yo‘lga qo‘yishlari uchun moddiy bazaning yetarli emasligi, ish joyi bilan ta‘minlanmaganligi, oylik maosh oladigan xodimlarning mavjud emasligi kabi muammolar mavjud bo‘lgan. 2016 - yildan boshlab Yangi O‘zbekistonda qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar asosida viloyatdagi milliy-madaniy markazlar ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi, faoliyatida samardorlik osha boshladi.

Bu borada milliy-madaniy markazlar O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan xorijiy mamlakatlar elchixonalari bilan o‘zaro aloqalarni kuchaytirishlari, hamkorlikda o‘zaro tadbirlarni yanada ko‘proq tashkil etishlari lozim.

5. Buxoro qadimdan ko‘pmillatli, polietnik, tarixi boy hududlardan hisoblanadi. Buxoroda Buyuk Ipak yo‘li vositasida savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik yuksak darajada bo‘lgan. Buxoroda o‘zbek, rus, fors (eroniy), turkman, tojik, ukrain, koreys, tatar, yahudiy, qozoq kabi o‘ndan ortiq millatlar istiqomat qiladi. Ular mahalliy aholi bilan o‘zaro hurmat va e‘zozda, inoq yashab kelishadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng Buxorodagi turli diaspora vakillari o‘z urf-odat va an‘nalarini, milliy indentiklikni saqlab qolish maqsadida o‘z milliy-madaniy markazlarini tashkil eta boshladilar. Buxoroda 1991-yildan 2017-yilga qadar “Oftobi So‘g‘diyoyon” tojik-fors, “Soglasie i miloserdie” rus, “Shalom” yahudiy, “Svetlitsa Polska” polyak, turkman va boshqa shu kabi o‘n bitta milliy-madaniy markazlar tashkil etildi va Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olindi. Viloyatda milliy-madaniy markazlar faoliyatida dastlab barcha hududlarda bo‘lgani kabi tashkiliy jarayonlarda o‘ziga xos bir nechta muammolarga duch keldi. Biroq barcha milliy-madaniy markazlar tugatilib ketmasdan, o‘z faoliyatini davom ettirdi. 2016-yildan keyin qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar hamda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida Buxoro viloyatidagi milliy-madaniy markazlar “Do‘stlik uyi”ga joylashtirildi, zamonaviy talablarga javob beradigan jihozlar bilan ta‘minlandi. Buxoroda milliy-madaniy markazlari turli tadbirlarni tashkil etishda faol ishtirok etishmoqda. Biroq, milliy-madaniy markazlar tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlar ommaviy axborot vositalarida to‘liq yoritilmaydi yoki qisman yoritiladi. Ularning faoliyatini, milliy-madaniy markazlarga davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarni keng xalq ommasiga yetkazib berish uchun boshqa viloyatlar qatori Buxoro viloyatidagi milliy-madaniy markazlarning ham veb-saytlarini, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yaratish lozim.

6. Buxoro viloyati ham Samarqand viloyati kabi jahonning yirik turizm va iqtisodiy markazlardan biri hisoblanadi. Viloyatda turizm va investitsion salohiyatni yanada rivojlantirish maqsadida milliy-madaniy markazlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, viloyat hokimligi, nodavlat tashkilotlar, mahalliy boshqaruv idoralari hamkorligida milliy-madaniy markazlar bilan turli tadbirlar tashkil etish, bu tadbirlarga hududda

istiqomat qilayotgan millat vakillarining xorijda istiqomat qilayotgan kichik biznes vakillari, tadbirkorlarni, turistik firmalarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Bu orqali hududda ziyorat ob'yektlari (rus, yahudiy, polyak, nemis, qozoq, tatar-boshqird, fors-tojik millatiga an'analariga mansub tarixiy obidalar, qabristonlar, cherkov va sinagogalar), gastronomik turizm (savdo uylari, restoranlar, bozorlar v.h.)larni targ'ib etish vositasida hududga kelayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish hamda investorlarni jalb etish imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqot yakunida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi milliy-madaniy markazlar faoliyati yoritib berilgan kitob-albom va ilmiy monografiya nashr etish tavsiya etiladi.

2. Milliy-madaniy markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarni turli OAVlarida kengroq yoritish, ularning internetda veb-saytlarini, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalarini yaratish kerak.

3. Samarqand davlat universitetining "Samarqand tamadduni tarixi" kafedrasida o'qitilayotgan O'zbekiston tarixi: Samarqand tarixi, Buxoro davlat universitetining "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasida o'qitilayotgan Buxoro tarixi, Navoiy davlat pedagogika institutining "Tarix" kafedrasida o'qitilayotgan Navoiy viloyati: o'tmishi va buguni kabi fanlar o'quv dasturiga viloyatlar milliy-madaniy markazlari faoliyati to'g'risida mavzularni kiritish tavsiya etiladi.

4. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish uchun grant mablag'lari hisobidan malaka oshirish kurslarini tashkil etish asosida milliy-madaniy markazlar rahbarlari o'rinbosarlari va faollarini o'qitishni tashkil etish tavsiya etiladi. O'zbekistonda yashayotgan millatlar o'rtasidagi bag'rikenglikni shakllantirish uchun, milliy bag'rikenglik emblemasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

5. Milliy-madaniy markazlarda faoliyat olib borayotgan atoqli ilm-fan namoyandalari, fan doktorlari va professorlar ishtirokida Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi hamkorligida sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, yer tizimlari, irrigatsiya va melioratsiya, ekologik barqarorlikni saqlash kabi yo'nalishlarda hududni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston-Rossiya", "O'zbekiston-Isroil", "O'zbekiston-Koreya", "O'zbekiston-Qozog'iston" qo'shma loyihalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12. 2019.Tar.02.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

УЗБЕКСКО-ФИНСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ШАРИПОВ ШАХРИДДИН ЗИЯДУЛЛАЕВИЧ

**ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ
ЦЕНТРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ОБЛАСТЕЙ
ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА В 1990-2020 годы)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2019.3.PhD/Tar552.

Диссертация выполнена в Узбекско-Финском педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (русский, узбекский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Эргашев Бахтияр Эргашевич доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Набиев Фарход Хамидович доктор исторических наук, профессор Давлатова Саодат Тиловбердиевна доктор исторических наук
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03./30.12.2019.Tar.02.10 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес. 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (998366) 239-11-40, (998366) 239-18-92; факс: (998366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № ____). (Адрес. 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (998366) 239-11-40, (998366) 239-18-92; Факс: (998366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.
(протокол реестра рассылки № ____ от « ____ » _____ 2023 года)

М.М.Исхоков

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук, профессор

О.Ж.Ирискулов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по
историческим наукам

И.М.Саидов

Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На современном этапе развития стран мира в развитых демократических государствах особое внимание уделяется обеспечению межнационального согласия. В международных интеграционных процессах демографическая ситуация, полиэтническое состояние указывают на чрезвычайную важность обеспечения мира и стабильности в регионах. Развитие межнациональных отношений в регионах, изучение опыта стран, добившихся в этом отношении эффективных результатов, анализ деятельности национально-культурных центров, внесение предложений и рекомендаций, направленных на выявление существующих проблем, является одним из актуальных вопросов.

В крупнейших мировых научных центрах ведутся научные исследования по обеспечению Узбекистаном, который проводит обновление в социально-политическом развитии центральноазиатского региона, мира и стабильности, межнациональной и межрелигиозной терпимости. В этих исследованиях в качестве приоритетных уделяется внимание вопросам мира между народами, межнациональных отношений, развития культуры толерантности и гуманизма, укрепления межнациональной и межгражданской солидарности и согласия, толерантности, человеческого развития, образования в духе мира, религиозного и межконфессионального взаимоуважения.

Системная работа, результаты достигаемые по обеспечению мира и стабильности, межнациональной и межрелигиозной толерантности в новом Узбекистане получают широкое признание международного сообщества. Следует подчеркнуть, что “в разных регионах мира усиливается межэтническая и межконфессиональная напряженность, поднимают голову национализм и религиозная нетерпимость. Разрушая государства и разделяя общества, они становятся идеологической базой для радикальных группировок и течений»⁵⁰. В этом смысле возникает необходимость проведения научных исследований, которые основаны на анализе реформ, проводимых в сфере межнациональных отношений в Узбекистане, изучении в этом плане мирового опыта, внедрении апробированных на практике развитых стран положительных тенденций в жизнь страны, выявлении существующих в этой связи в республике проблем и выработки рекомендаций по их решению.

Данная исследовательская работа в определённой мере служит для выполнения задач, обозначенных в указах Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами” за № 5046 от 19 мая 2017 года, “Об утверждении Концепции государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений” за № 5876 от 15 ноября 2019 года, “О

⁵⁰ Мирзиёев Ш. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик - халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг хаётбахш манбаи // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – В. 298.

Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” за № УП-60 от 28 января 2022 года, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об организации деятельности Общественного совета при комитете по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете Министров Республики Узбекистан” за № 1018 от 25 декабря 2017 года и других нормативно-правовых документах по этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовного и образовательного развития информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В Узбекистане по национально-культурным центрам, действующим в Самаркандской, Навоийской и Бухарской областях Зарафшанского оазиса, специальные исследовательские работы не проводились. Однако были выполнены несколько исследований, затрагивающие некоторые аспекты этого вопроса. Исходя из этого, степень изученности темы целесообразно разделить на две группы.

Первая группа охватывает исследования различных аспектов межнациональных отношений в Узбекистане за годы независимости, выполненные на основе междисциплинарного подхода. В частности, в этом отношении можно привести работы, осуществлённые К.Норматовым, Ф.Исхаковым, Р.Нуриллиним⁵¹, К.Миразамовым⁵², А.Муминовым⁵³, О.Ата-Мирзаевым, В.Гентшке, Р.Муртазаевой⁵⁴, Д.Бободжоновой⁵⁵, О.Мусаевым⁵⁶, Х.Юнусовой⁵⁷, З.Юсуповым⁵⁸, Р.Шигабдиновым, Р.Назаровым⁵⁹, Г.Мирзаевым⁶⁰.

⁵¹ Норматов К., Исхоков Ф., Нуриллин Р. Миллатлараро муносабатлар маданияти ва байналминал дунёқараш. – Тошкент: Ўзбекистон. 1993. 135 б.

⁵² Миразамов К. Миллий-маданий манфаатлар ва миллий маданиятларнинг ривожланиши. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 1995. 143 б.

⁵³ Муминов А. Миллатлараро муносабатлардаги муаммоларни ўрганишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан. 1996. 176 б; Он же: Миллий сиёсат ва маданий соҳадаги ўзгаришлар. –Тошкент: Академия. 2010. 123 б.

⁵⁴ Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. –Ташкент: Шарк, 1998, 159 с; Они же: Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. - Ташкент, 2004. 179 с; Бағрикенг Ўзбекистон диаспоралари тарихи (Бухоро яхудийлари, немис, поляк, корейс, грек, уйғур, Болтикбўйи халқлари мисолида). 2-китоб. Жамоавий монография. Масъул муҳаррир. Р.Ҳ. Муртазаева. –Тошкент: Турон-Иқбол. 2019. 173 б.

⁵⁵ Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. –Тошкент: Шарк, 1999. 160 б.

⁵⁶ Мусаев О. Ўзбекистон Республикасида миллатлараро муносабатлар (1991-1997 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент 2000. 163 б. Он же: Миллий сиёсат ва миллий-маданий марказлар // Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. –Тошкент: Шарк, 2000. –Б. 147-162, – 224 б; Он же: Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ривожини. – Тошкент: Истиқлол нури. 2016. 323 б; Он же: Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2017. 258 б.

⁵⁷ Юнусова Х. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Зарқалам, 2005. 116 б.

⁵⁸ Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналминаллик (1970-2000 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: 2011. 153 б.

В их исследованиях содержится информация по некоторым таким вопросам, как межнациональные отношения, интернациональное мировоззрение, проблемы межэтнических отношений в Узбекистане. Следует подчеркнуть, что в исследованиях Р. Муртазаевой анализируются исторические корни межнациональных отношений в Узбекистане, этногенез различных диаспор на территории Узбекистана, вопросы толерантности, межнациональной и межрелигиозной терпимости в годы независимости.

В исследованиях Д. Бободжоновой освещены наличие проблем межнациональных отношений в контексте социально-экономических отношений в Узбекистане, а также экономические основы межнациональных отношений.

В исследованиях О. Мусаева изучены межнациональные отношения в Республике Узбекистан, социально-философские особенности развития межнациональных отношений в Узбекистане, в исследованиях Р. Назарова полиэтничное общество в Узбекистане изучается в историко-социологическом аспекте, а также в историческом ракурсе анализируются этнополитические процессы и межнациональные отношения.

